



HISTORY OF VIEWS ON SOCIAL STRATIFICATION

Anorabonu Khaytovna Khudoyberdieva

Associate Professor of the Department of Labor Psychology and Professional Culture at the Academy of the Ministry of Internal Affairs

anoraxudoyberdiyeva@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: society, stratification, development, person, personality, structure of society, owners, inequality, state.

Received: 04.03.26

Accepted: 05.03.26

Published: 06.03.26

Abstract: This article discusses the general theoretical and methodological foundations of the study of the social structure of society, property and lifestyle of people in society as the basis of stratification structures in the works of ancient philosophers. It also mentions the essence of the concept of stratification, the socio-class structure of modern societies, and its role in the development and decline of states.

SOTSIAL STRATIFIKATSIYA HAQIDAGI QARASHLAR TARIXI

Anorabonu Hayotovna Xudoyberdiyeva

IIV Akademiyasi Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasida dotsenti

anoraxudoyberdiyeva@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jamiyat, stratifikatsiya, taraqqiyot, inson, shaxs, jamiyatstrukturalari, mulkdorlar, notenglik, davlat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda insonlarning notengligi stratifikatsiyaviy strukturalarning asosi ekanligi, qadimgi faylasuflarning asarlarida o'rganish doirasida jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, mulklari va ularning turmush tarzini o'rganishning umumiy nazariy va uslubiy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, stratifikatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, bugungi kundagi zamonaviy jamiyatlarning sotsial-sinfy strukturalari, davlatlarning taraqqiyoti va tanazzulida tutgan o'rni haqida aytib o'tilgan.

ИСТОРИЯ ВЗГЛЯДОВ НА СОЦИАЛЬНУЮ СТРАТИФИКАЦИЮ

*Анорабону Хаётовна Худойбердиева**Доцент кафедры психологии труда и профессиональной культуры Академии МВД*anoraxudoyberdiyeva@gmail.com*Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	общество, человек, общества, государство.	Аннотация:	В данной статье рассматриваются общие теоретико-методологические основы изучения социальной структуры общества, собственности и образа жизни людей в обществе как основы стратификационных структур в трудах античных философов. Также упоминается сущность понятия стратификации, социально-классовая структура современных обществ, ее роль в развитии и упадке государств.
------------------------	---	-------------------	---

Insoniyat hayotining asosiy ko'rsatkichlardan biri shundan iboratki, unda taraqqiyot va raqobat tufayli ham insonlar orasida sotsial tengsizlik kelib chiqadi. Sotsial stratifikatsiya har qanday jamiyatning o'ziga xos funktsional omili hisoblanadi. Bu haqida nemis faylasufi Ralf Darendorf shunday yozadi: "Hattoki eng gullab yashnayotgan jamiyatda ham eng muhim jihatlari ba'zida turg'un holat sanaladi. Albatta, zamonaviy jamiyatda ushbu farqlar kasta yoki tabaqaviy jamiyat tayangan to'g'ridan-to'g'ri zo'ravonlik va qonunchilik normalariga tayanmay qo'ydi. Shu bilan birga, mulk va daromad hajmi, obro' va mansabga qarab tabaqalanishdan tashqari jamiyatda mansab pillapoyalari bilan bog'liq farqlar ham mavjud. Ular shunchalik chigal va jamiyat hayotiga mustahkam o'rnashib olganki, tengsizlik yo'qotilib, barcha barobar bo'ldi deb e'lon qilinsa ham, ko'pchilik bu xabarga shubha bilan qaraydi".[1]

R.Darendorfni fikrlaridan shuni bilishimiz mumkinki jamiyat tarkibiy tuzilishining asosiy belgilaridan biri – bu sotsial farqlardir. Sotsial stratifikatsiya - bu odamlarning qandaydir yig'indisini sotsial sinfga, ierarxik martaba qatlamiga tabaqalanishidir. Strata (lot.stratum-qatlam, qavat, fesere-bo'lmoq) – o'xshash sotsial ko'rsatkichlar kasb etgan odamlarning sotsial qatlamidir. Pitirim Sorokin quyidagicha ta'rif bergan: "Sotsial stratifikatsiya – bu odamlar (aholi) muayyan jamoasining ierarxik rang (pillapoya)ga mos ravishda turli sinflarga differentsiatsiyalashuvi (tabaqalanishi) bo'lib, u yuqori va quyi qatlamlarning mavjudligida namoyon bo'ladi. Uning asosi va mohiyati–u yoki bu ijtimoiy birlik a'zolari orasida huquq va imtiyozlarning, mas'uliyat va majburiyatlarning notekis taqsimlangani, sotsial qadriyatlarning, hokimiyat va ta'sir kuchining mavjudligi yoki mavjud emasligidir. Sotsial stratifikatsiyaning

konkret shakllari juda ko'p sonli va turli-tuman. Biroq ular turli-tuman bo'lishiga qaramay, asosiy uchta shaklga: iqtisodiy, siyosiy hamda kasbiy (professional) stratifikatsiyaga keltirilishi mumkin. Odatda bular hammasi o'zaro chambarchas qorishib ketadi. Sotsial stratifikatsiya—bu har qanday tashkillashtirilgan jamiyatning doimiy tavsifi (xarakteristikasi) bo'lib hisoblanadi".[2]

Stratifikatsiyaviy strukturalarning asosi-odamlarning tabiiy va sotsial notengligi ekanligi qadimgi faylasuflarning asarlarida ijtimoiy tengsizlikni o'rganish doirasida jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, mulklari va ularning turmush tarzini o'rganishning umumiy nazariy va uslubiy asoslari yoritib berilgan.

Jumladan, miloddan avvalgi 427-347 yillarda Afinada yashab o'tgan antik davr yunon faylasufi Platon (Aflotun) sog'lom shahar davlatni barpo etish uchun quyidagi shartlarni ilgari suradi. Hokimiyat xalq yoki bilimi kam va himmatsiz yakka shaxsli hukmdorlarning emas, balki vakolatli kishilarning qo'lida bo'lishi kerak. Umumiy ta'lim tizimi esa bunday maqsadga erishish uchun vosita hisoblanadi. Unda har bir kishi bir xildagi imkoniyatlarga ega bo'ladi va har bir kishi polisda o'z qobiliyatlariga mos keladigan o'rinni topishi mumkin.

Birinchi tanlovdan o'ta olmaganlar hunarmandlar, dehqonlar va savdogarlar bo'lishadi. Ikkinchi tanlovdan chetga chiqib qolganlar boshqaruvchilar va jangchilarga aylanishadi. Shunday qilib ta'lim tizimi uchta ijtimoiy sinfni keltirib chiqaradi. Birinchi sinf vakolatlarga va to'la hokimiyatga ega bo'lgan hukmdorlardan tashkil topadi. Boshqaruv va harbiy mudofaa ishlari bilan band bo'lganlar ikkinchi sinfni shakllantiradi. Jamiyat uchun muhim mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilaruchinchi sinfga mansub bo'ladi. Bu yerda kishilarning har xilligi asos bo'ladi.[3]

Platonning yuqorida bayon qilingan fikrlaridan tushunish mumkinki, ta'lim tizimi aynan har xil tipdagi kishilarning tanlab olish va ularni jamiyatdagi tegishli o'rinlarga joylashtirish uchun xizmat qiladi. Insonlarning o'qib o'rganishi va kerakli bilim va tajribalarga ega bo'lishi tufayli ularning jamiyatdagi mavqeyi belgilanadi. Uning fikrlaridan kuchli davlat va farovon jamiyat barpo etishda ta'lim tizimi va inson kapitalining rivojlantirish hayotiy muhim zaruriyat ekanligini anglab olish mumkin.

Aflotunning shogirdi buyuk yunon faylasufi sharq mutafakkirlari orasida "Uztozi avval" nomi bilan mashhur bo'lgan Aristotelning falsafiy qarashlari esa «Inson-ijtimoiy maxluqotdir» degan g'oyaga asoslanadi, ya'ni oila, jamiyat, davlat - inson hayoti va faoliyatining asosiy sohalaridir, bularsiz u yashay olmaydi. Aristotel davlat masalasida har qanday arbob qulay siyosiy shart-sharoit vujudga kelishini kutib o'tirmay, mavjud imkoniyatdan kelib chiqib, yaxshi

konstitutsiya asosida kishilarni boshqara bilishi, birinchi galda yosh avlodning jismoniy va aqliy tarbiyasi haqida qayg'urishi lozim, deb hisoblaydi.

“Politika” asarida u barcha jamiyatlarning uchta tarkibiy qismini aytib o'tadi: bitta sinf juda boy; ikkinchisi juda kambag'al; uchinchisi o'rta. Aristotel o'rta sinfni eng yaxshi deb hisoblaydi, chunki uning a'zolari yashash sharoitlariga ko'ra oqilona qoidalar va tamoyillarga rioya qilib yashaydilar. Aynan shu o'rta sinfdan yaxshiroq jamiyat shakllanadi, chunki u o'rta sinf ko'p sonli bo'lgan davlat yaxshiroq boshqariladi, chunki shu davlatda ijtimoiy muvozanat ta'minlangan bo'ladi.[4]

Ammo Platondan farqli ravishda, Aristotel xususiy mulk axloqiy kamolotga zarar yetkazishiga ishonmagan va buni, agar davlat mulki bo'lgan ijtimoiy tuzilish haqiqatan ham juda yaxshi bo'lganida, uning namunalari uzoq vaqtdan beri ma'lum bo'lib qolishini ta'kidlagan. Ijtimoiy muvozanat uchun egalikdagi tengsizlik xavflidir, shuning uchun Aristotel kuchli o'rta sinfga ega bo'lgan jamiyat uchun va egalik tenglamasini himoya qiladi.

U o'rta sinf eng yaxshi ekanligini ta'kidlaydi, chunki uning vakillari o'zlarining hatti-harakatlarida eng oqilona yo'lni tanlashlarini aytib o'tgan.[5]

Uyg'onish va Yangi asr olimlari ham tengsizlik muammolarini muhokama qilishni davom ettiradilar. N.Makiavelli, J.Lokk, I.Bentham, J.J. Russo, G.Gegel tug'ma yoki orttirilgan tafovutlarga asoslangan ijtimoiy qatlamlarni yoki sinflarni shakllantirishda jamiyatda muammolar bo'lishi mumkinligini aytib o'tgan. A.Smit, Sen-Simon, O.Migne kabi olimlar ijtimoiy sinf tushunchasini ijtimoiy fanga kiritdilar. Ijtimoiy tengsizlikni o'rganishga zamonaviy yondashuvlar orasida T.Parsons, K.Devis, U.Mur, R.Mertonning asarlarida yoritilgan funktsional yondashuv eng rivojlangan yondashuv sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yo'nalish vakillari ijtimoiy tabaqalanishning mavjudligini har qanday jamiyatda odamlarning ijtimoiy ierarxiyadagi ma'lum bir tuzilishga tegishli bo'lishi zarurati bilan asoslab berishadi.

Individ jamiyatda o'zining faoliyati davomida turli sohalarda turlicha sotsial vaziyatlarni egallashi mumkin. Masalan, yuqori siyosiy maqomga ega bo'lgan odam nisbatan kamroq daromad olishi, boy tadbirkor yaxshi ma'lumotga ega bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ayrim olingan individ yoki sotsial guruhlarining ijtimoiy holatini aniqlash uchun amaliy tadqiqotlarda barcha o'lchovlarning yig'indisi bo'yicha o'rganiladigan sotsial vaziyatning integral ko'rsatgichidan (integral maqom) foydalaniladi. Bundan tashqari, o'zini-o'zi tasniflash usuli ham mavjud bo'lib, har bir odamning qaysi sinfga mansub ekanligi uning o'zi tomonidan aniqlanadi. Bu usul baholashlar mezonlari talablariga javob bermasada, qandaydir darajada odamlarning sinfiy o'zini-o'zi anglashini aks ettiradi.

Sotsial stratifikatsiyaning quyidagi tarixiy turlari mavjud: qullik, kastachilik, tabaqa, sinflar. Bu tushuncha-sotsiologiyani markaziy mavzusidir. Chunki, u jamiyatning boylarga va kambag'allarga bo'linishini tushuntirib beradi. Stratifikatsiyaning to'rtta asosiy o'lchovi daromad, hokimiyat, ma'lumot va nufuz hisoblanadi. Maqomlarning o'zaro tengsizligi stratifikatsiyaning asosiy xususiyatidir. Yevropa olimlarining tadqiqotlarida nufuz uch o'lchovli belgilar-kasbiy nufuz, daromad darajasi va ma'lumotlilik darajasi yordamida aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlarni umumlashtirish sotsial-iqtisodiy vaziyat (pozitsiya) indeksi deb ataladi.[6]

Yuqoridagi tahlildan ko'rish mumkinki, stratifikatsiya ijtimoiy falsafaning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu tushuncha yordamida jamiyatning turi, rivojlanishi, barqarorligi, iqtisodiy salohiyati, sinflar va sotsial qatlamlarning rivojlanish qonuniyatlari o'rganiladi, olingan natijalar jamiyatni yanada rivojlanishi uchun hayotga tatbiq etiladi. Amaliy hayotda stratifikatsiyaviy tizimning dalillari bir-birlari bilan chatishib ketadi, bir-birlarini to'ldirib turadi. Masalan, sotsial-professionalierarxiya mehnat taqsimotining rasmiy mustahkamlangan ko'rinishida jamiyatning hayot faoliyatini qo'llab-quvvatlab turish uchun nafaqat mustaqil ravishda muhim funktsiyalarni bajaradi, balki, har qanday stratifikatsiyaviy tizim strukturalariga sezilarli ta'sir o'tkazib turadi.

Umuman olganda, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlashning asosi va eng muhim omili turli millat vakillari va turli toifadagi insonlar o'rtasidagi birlikni, ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlay olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дарендорф Р. Современный социальный конфликт. Очерк политики свободы. – М., РОССПЭН, 2002. – С. 19
2. Сорокин П. Социальная и культурная мобильность // Сорокин П. Человек, цивилизация, общество / Под ред. А.Ю.Соломонова. – М., Политиздат, 1992. – С.297-307.
3. Г. Скирбекк, Н. Гилье “Фалсафатарихи” Тошкент “Шарқ” 2002 йил 98-99б
4. Аристотел. Композициялар. 4 т.да 4. / Аристотел-М., 1983. - 830 б.
5. Александрова О. А. Ўртасинф: шаклланишининг мафкуравий контексти / О. А. Александрова // Ижтимоий фанлар ва ҳозирги кун. 2002. № 1. 25-33.
6. М.Қирғизбоев. Социология. Тошкент, 2017.- 277 б